

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MILLIY KITOR PALATASI

INV. №

TONG

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

YULDUZI

2009-yil  
9-noyabr  
N:45  
(66742)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

unicef  
unite for children

HALI BUNAQAQASI  
BO'LMAGAN

Bu yilgi kuzgi ta'til kunlari 7 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan 30 nafar yosh qalamkash tengdoshlaringiz uchun juda maroqli kechdi. Jurnalistlarni qayta tayyorlash Xalqaro markazi hamda YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida «Bolalarning o'z fikrlarini bolalar ommaviy axborot vositalari orqali ifodalash huquqini ta'minlash» mavzusida seminar-trening o'tkazildi.

Seminarni Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro markazi direktori Gulnora Bobojonova tantanali ravishda ochib, mazkur tadbirning maqsadi, mazmun-mohiyati haqida so'zladi. So'ngra, YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi boshlig'i janob Mahbub Sharif so'z olib, bolajonlarni qizg'in qutladi.

5 kun davom etgan seminar-treningda o'quvchilar jurnalistik mahoratlarini oshirish bilan birga, haq-huquqlarini teranroq anglash, o'z fikrlarini nafaqat tengdoshlari, balki kattalar oldida ham erkin bayon etishni, o'z g'alar fikrini hurmat qilishni o'rgandilar. Tengdoshlari bilan o'zaro fikr almashib, do'stlar orttirishdi.

Mazkur seminar-trening haqida gazetamizning keyingi sonlarida batafsil ma'lumot beramiz. Darvoqe, bu haqida ana shu trening ishtirokchilarining o'zlari yozishadi.

OBUNA – 2010

Shu yilning 10-oktabr kuni «Gulxan» jurnalimizning 80 yillik yubileyi nishonlanganidan xabaringiz bor. Yubileyga jurnalning faxriy Bosh muharrirlari, sobiq xodimlari, matbuotimiz fidoyilari, taniqli yozuvchi va shoirlar tashrif buyurdilar... Xullas, yubiley ko'ngildagidek o'tdi. Endi navbat obunaga!

Ha, aytganday, bayram bahonasida jurnalimiz obunasini tashkillashtirishda faollik ko'rsatgani uchun poytaxtdagi 243-maktab jamoasi tahririyatimiz tomonidan televizor bilan taqdirlandi.

Yaqinda shu maktabda bo'ldim. Bolalar meni ko'rib, voy, jurnalist opamiz keldilar, deb yugurishdi.

– Opajon, biz «Gulxan»ga 2010-yilga ham obuna bo'lmoqchimiz. Bu safar kompyuter berasizlarmi? – deya o'rab olishdi qaqajonlar. Maktab direktori Nasiba opa Nishonova «Gulxan»sevar o'quvchilari bilan faxrlandi. Bosh muharririmizga bolalarning fikrlarini yetkazdim.

U kishi xursand bo'lib:

– Qaysi maktab 100 foiz obuna bo'lsa, bitta kompyuter bizdan! – deya so'z berdilar.

Siz ham vaqtni boy bermay, «Gulxan» jurnaliga obuna bo'ling!

Vasila PO'LATOVA,  
«Gulxan» jurnali xatlar va ommaviy ishlar  
bo'limi muharriri

Bir paytlar ustozining g'amgin nigohidan ko'zlarini uzmay saboq olgan Ovotoy bugun bolalarning quvnoq olami ichra xushnud kezib yuribdi.

Donishmandlarimiz bejiz aytishmagan: «Yoshlikda biz shogird, o'zgaralar ustoz, so'ngra, ustoz bo'lib dilni etdik shod».

Charx aylanib borgani sari davr-u zamon ham o'zgarib boraveradi. Hammasi xuddi kechagina bo'lgandek, 1982-yil Toshkent shahridagi Nizomiy nomli institutning filologiya fakultetida tahsil olib, Surxondaryoga qaytgan Ovotoy opa Bo'rievaning ish faoliyatini boshlaganiga ham hash-pash deguncha chorak asrdan oshib qolganiga o'zi ham ishonmaydi.

– Kishi o'z kasbini sevsan, uni dildan e'zozlasa, hayot shun-

## OVOTOY OPANING OBOD DUNYOSI

chalik jo'shqin tus olar ekan, – deydi hamsuhbatimiz.

Ha, Sariosiyo tumanidagi Sialkovskiy nomli 62-o'rta maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars berish bilan ish boshlagan Ovotoy opani bolalarning obod dunyosi bir umr o'ziga mahliyo etgani sir emas.

O'quvchilarga noan'anaviy usullarda dars berib, «Bahsu munozara»larga chorlagan opaning xizmatlari besamar ketmadi. U «O'zbekiston xalq

ta'limi a'lochisi» nishoni bilan taqdirlandi. 2007-2009-yillar maktab direktori, ayni kunlarda esa Sariosiyo tuman xalq ta'limi boshqarmasida uslubchi bo'lib faoliyat yuritmoqda. O'z sohasining jonkuyar, bilimdon murabbiyi doimo izlanib yashaydi. Har bir o'tkaziladigan tadbirda boshqosh bo'lib, shogirdlar ko'ngliga yo'l izlaydi.

Ovotoy opaning obod dunyosi bolalar bilan go'zalligiga ishonch hosil qildik.

Axtamqul KARIM



**ZIYONI HAM BOR**

Sir emaski, bugungi kunda hayotimizni XXI asr mo'jizasi sanalmish kompyuterlar, qo'l telefonlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vositalar hayotimizga qulaylik olib kirish bilan birga, insoniyat boshiga yangi-yangi balolarni yog'dirayotgani achinarli holdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, dunyo bo'yicha paydo bo'layotgan kasalliklarning 45 foizi aynan telefon va kompyuter orqali kelib chiqayotgani ma'lum bo'ldi. Achinarlisi, dunyo olimlarini o'ylantirib tashvishga solib kelayotgan saraton (rak) kasalligining 75-80 foiziga ham shu texnika vositalari sabab bo'layotgan ekan.


Bugungi kunda ayrim tengdoshlarimizning darslardan qochib, kompyuter xonalarida bema'ni, jangari, hatto hayosiz filmlarni ko'rishayotgani, jajji uka va singillarimiz esa hech bir tarbiyaviy ahamiyati bo'lmagan multfilmlarni tomosha qilishayotganiga guvoh bo'lamiz. Bunday filmlar o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga yot g'oyalarni singdirib qo'yishi, tarbiyasiga qanday ta'sir qilishi hammaga ayon-ku! Zero, yurtboshimiz: «Kelajakka yoshlar nigohida boqaylik», deya da'vat qiladilar. Bilim olish, hunar o'rganish o'rniga kompyuter xonalarida kunimizni o'tkazsak, bu ishonchni qanday oqlaymiz?! Demak, bu texnika vosita-

laridan noo'rin, maqsadsiz foydalanish nafaqat salomatligimiz, balki ma'naviy kamolotimizga ham salbiy ta'sir ko'rsatar ekan.

Biz yoshlarni baravj navniholga qiyoslashadi. Ana shu navnihollar ildiziga o'z qo'limiz bilan bolta urmaylik, aziz tengdoshlar.

Gulabza  
YO'LDOSHEVA,  
S.H.Sirojiddinov  
nomidagi akademik  
litseyning 311-guruh  
o'quvchisi

## OY QAYTIB KELADI



Oy 29 kecha-kunduz, 5 soat, 30 daqiqa, 56 soniyada o'zining birinchi joyiga qaytib keladi. Ammo kun, hafta va oy hisobi faqat butun sonlardan iborat bo'lishi kerak, shu bois ham yil oylari 30 va 29 kun deb qabul qilingan. Shunday bo'lgach, oy hisobi o'ning haqiqiy davridan ortda qolib boradi. Olimlar bu farqni yo'qotish uchun hijriy taqvimga har 30 yilga 11 kecha-kunduz qo'shib, bu 30 yilning 19 yilini odatdagidek 354 kecha-kunduz, 1 yilini esa 355 kecha-kunduz hisoblaydilar. Binobarin, har 30 yillik davrning 2-, 5-, 7-, 10-, 13-, 16-, 18-, 21-, 24-, 26 va 29 yillari KABISA, ya'ni 355 kunlik yil hisoblanadi.

«Kabisa» arabcha so'z bo'lib, «to'ldirilgan», «orttirilgan» ma'noni bildiradi. Demak, kabisa yili to'ldirilgan yil deganidir.

## GO'ZAL TARBIYA

Farzandlarga go'zal tarbiya bermagan odam o'z oilasining baxt-sodatini barbod etadi, kulfat va mashaqqatlarga giriftor bo'ladi.

\*\*\*

Hayotda badan va fikrnigina tarbiya qilish kifoya qilmaydi, xulq-atvorni ham tarbiya qilish zarurdir.

\*\*\*

Ota-ona tarbiyasi qanday holda bo'lsa, bolasi ham shunday tarbiyada o'sib yetishadi. Shuning uchun, avval o'zimiz go'zal tarbiyali bo'laylik, bolalarimizni o'zimizdek go'zal tarbiyali qilib o'stiraylik.

\*\*\*

Tarbiyadan ulug'roq narsa yo'q. Tarbiya soyasidagina inson haqiqiy inson bo'ladi.

\*\*\*

Ota-onasining roziliklarini olishga g'ayrat qilib, ularga shirinso'z, ochiq yuz bilan muomala qilgan farzand olqishga sazovordir.

\*\*\*

Ota-onasini hurmat qilmagan farzand o'z farzandidan hurmat talab qilishga loyiq emasdir.

NARGIZA to'pladi

## ONAM HAQIDA SO'Z




Onajonlar haqida so'z borsa, ularning mehri, muhabbati ta'rifini tugatib bo'lmaydi. Lekin onajonim Fazilatxon Madaminova men uchun dunyodagi eng mehribon onadirlar. Bizning Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 18-umumta'lim maktabimizda 15 yildan buyon boshlang'ich sinf o'quvchilariga saboq berib kelayotgan onajonimni maktabdoshlarim, mehdaryo ustoz, deya e'zozlashadi. Ishdan bo'sh vaqtlarida chevarchilik qilib, el-u yurt duosini oladilar.

Kuni kecha barcha ustoz va murabbiylar bayramini nishonladik. Men ularga, shuningdek, onajonimga bag'ishlab she'r yozdim:

Mehnat qilasiz tinmay,  
Unutib goho bizni.  
O'quvchilaringizdan,  
Qizg'anar edim sizni.  
Esim tanib, angladim,  
Sharaflidir kasbingiz.  
Dur-u gavhardan a'lo,  
Bor-yo'g'ingiz, aslingiz.  
Charchab-horib kelsangiz,  
Deyman, hormang, onajon!  
Biz farzandlar baxtiga,  
Omon bo'ling har qachon.

Dinoraxon SULTONOVA,  
5-«A» sinf o'quvchisi



## AYAMNING «SOVG'A»SI


Janni Rodarining «Quyosh va bulut» kitobini bir oy ichida o'qib tugatgandim. Endi yangi kitobimni o'qiyapman. Yaqinda maktabimizda o'tkaziladigan «Hosil bayrami»da boshlovchilik qilaman. Ana shu tadbirda yangi kitobimda o'qigan topishmoqlarimni sinfdoshlarimga aytib, zukkoliklarini sinab ko'rmoqchiman.

Abdulaziz MIRZAYEV,

Toyloq tumanidagi 21-maktabning  
2-«B» sinf o'quvchisi

## QIZIQARLI TO'GARAK

Maktabimizda nemis tili to'garagi ish olib boradi. Men bu to'garakka a'zoman. Sababi, ustozim Mavluda opa Jabborova bizga nemis tilida qiziqarli hikoyalar, ertaklar, latifalar aytib beradilar. Biz esa ustozimizni diqqat bilan tinglab, eshitganlarimizni darhol tarjima qilishga harakat qilamiz. Dugonalarim Hilola, Durdonalar bilan matematika to'garagiga ham qatnashamiz. Matematika bo'yicha tumanlararo Olimpiadada 2-o'rinni egalladim. Bularning bari uchun sevimli ustozimiz Nodira Imomovaga minnatdorchilik bildiraman.




Gulnoza NORQULOVA,

Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi  
4-iqtidorli bolalar maktabining 5-sinf o'quvchisi

## ILM TOMON BIR QADAM

Dunyodagi rivojlangan davlatlardan biri hisoblangan AQSH 1776-yilda Buyuk Britaniyadan ajralib mustaqil bo'lgach, katta qiyinchiliklar evaziga hozirgi darajaga erishgan. Mamlakatning yuksalishida ilm-fanga katta e'tibor qaratilgani asosiy omil bo'ldi. Hozirgi kunda ham bu mamlakatda yashovchi yoshlarning har 10 mingdan 113 nafari ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqda. Amerikaning mashhur Garvard hamda Akloxoma universitetlarida ta'lim olayotgan yoshlarning ko'pchiligi yetuk mutaxassis bo'lib yetishadilar. AQSHlik yoshlar nafaqat ilm-fanda, balki sport sohasida ham ulkan marralarni zabt etishmoqda. AQSH terma jamoasi Olimpiada o'yinlarida, jahon va qit'a musobaqalarida, boks, futbol, basketbol, yengil atletika, gimnastika, suzish va yugurish bo'yicha yaxshi natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Sir emaski, ko'plab tengdoshlarimiz bu davlatda o'qishni orzu qilishadi. Ammo har qanday orzu ro'yobi uchun ilm tomon bir qadam tashlamoq lozim. Ilm bilan boshlanuvchi yo'l orzular ijobati bilan poyoniga yetadi. Orzuingiz yo'lidan sira adashmang.



Mirkamol UMMATQULOV,  
yosh muxbirimiz

## MUDDATIDAN OLDINGI TA'TIL

Krasnoyarskda aholi orasida gripp kasalligi ko'payib ketganligi bois, o'quvchilar kuzgi ta'tilga muddatidan oldin chiqdilar. Sanitar-epidemiya komissiyasi a'zolarining navbatdagi yig'ilishidan so'ng, ta'til 28-oktabrdan 4-noyabrgacha deb belgilandi. Aynan shu kunlarda bolalar va o'smirlar o'rtasida o'tkaziladigan tadbirlar bekor qilinib, turli to'garaklar o'z faoliyatini vaqtincha to'xtatdi. Shu munosabat bilan Krasnoyarsk hududidagi barcha maktablarda ota-onalar majlisi o'tkazildi. Unda ota-onalar farzandlari salomatligini qattiq nazorat qilishlari lozimligini yana bir bor ta'kidlab o'tildi.



## DAVOMAT UCHUN JO'LOV

Britaniya maktablaridan birida o'quvchilar davomatini yaxshilash borasida ajoyib g'oya o'ylab topilgan: yil davomida hech bir mashg'ulotni qoldirmay, darsga to'liq qatnashgan o'quvchi o'quv yili oxirida mukofotlanadi. Bunday o'quvchilarga yozgi ta'tilga chiqishdan oldin 50 funt, ya'ni 70 dollar hadya etiladi. Tahlillarga ko'ra, bu usul qo'llangandan so'ng davomatning 10 foizga o'sishi kuzatilgan.



## UZOQNI YAQIN QILIB

Hindiston janubida joylashgan Kanyakumari shahrining issiq ob-havosi o'quvchilarning toliqib qolishlariga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, uzoq masofadan qatnovchi bolalar yo'llarini yaqin qilish maqsadida, maktabga maxsus «avtobuscha»larda qatnashadi. 10 nafar o'quvchiga mo'ljallangan velosiped ko'rinishidagi «avtobuscha»lar juda kichikligi bilan barchaning e'tiborini tortadi.

## KITOBSEVAR BOLALAR

«Vashington post»ning xabar berishicha, Amerikaning bir qancha maktablarida o'quvchilarni qo'shimcha adabiyot o'qishlarini ko'paytirish uchun tajriba o'tkazildi. Unga ko'ra, o'quvchilarning har bir o'qib chiqqan adabiyoti uchun qo'shimcha ball qo'yilishi belgilangan. Ushbu ballar kitobning ma'nosiga qarab qo'yildi. Masalan, Amerikaning zamonaviy yozuvchisi Tom Klensining «Prezident qarorlari» kitobiga 78 ball, Fedor Dostoyevskiyning «Jimoyat va jazo» asariga 50 ball, German Melvillning «Mobi Dik» kitobiga 42 ball, Jonatan Sviftning «Gulliverning sarguzashtlari» asariga 25 ball, Mark Tvenning «Geklberri Finning sarguzashtlari» kitobiga 18 ball, Ernest Xemingueyning «Chol va dengiz» asariga 4 ball qo'yildi. Bu ballarning o'quvchilar baholariga qo'shilishi ularning kitobga bo'lgan mehrini yanada oshiryapti.

Internet manbaalari asosida  
GULYUZ tayyorladi

## TEST

1. H.K.Andersenning nomini dunyoga mashhur qilgan to'plamlar nomini toping.

- A) «Bronza to'ng'iz», «Qor malikasi», «Bulbul», «Kumush tangacha»;  
B) «Bolalarga aytilgan ertaklar», «Yangi ertaklar», «Tarixlar», «Yangi ertaklar va tarixlar»;  
D) «Dyumchaxon», «Suv parisi», «Bulbul», «Yangi ertaklar»;  
E) «Umr haqida ertak», «Suv parisi», «Yangi ertaklar va tarixlar».

2. Quyidagi parcha qaysi asardan olingan? «Yetti iqlim sayyohlari chinni saroyini, jannatmakon bog'ni bu yurtning g'aroyiboti mana shu!» – deyishar ekan.

- A) «Bulbul»;  
B) «Qor malikasi»;  
D) «Dyumchaxon»;  
E) «Bronza to'ng'iz».

3. «Men sening boshingdagi tojing uchun emas, qalbing uchun sevaman».

Yuqoridagi jumla qaysi asar qahramonining so'zlari?

- A) «Iskandar Zulqarnayn»da cho'pon;  
B) «Oygul bilan Baxtiyor»da shoh;  
D) «Bulbul»da bulbul;  
E) «Qor malikasi»da malika.

4. A.Qodiriyning 1913-1916-yillar orasida yozilgan ilk hikoyalari nomini aniqlang.

- A) «Mehrobdan chayon», «Namoz o'g'ri»;  
B) «Obid ketmon», «O'tkan kunlar»;  
D) «To'y», «Ahvolimiz»;  
E) «Juvonboz», «Uloqda».

5. A.Qodiriy rus adabiyotidan kimlarning asarlarini o'zbek tiliga o'g'irgan?

- A) Gogol, Chexov;  
B) Pushkin, Lermontov;  
D) Gorkiy, Tolstoy;  
E) Nekrasov, Pushkin.

6. «Uloqda» hikoyasi kimning tilidan aytib beriladi?

- A) Orif;  
B) Turg'un;  
D) Esonboy;  
E) Mahkamboy.

7. Badiiy adabiyotda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan narsalarning, masalan, quvonch bilan o'limning yonma-yon kelishi qanday usul deyiladi?

- A) o'xshatish;  
B) sifatlash;  
D) jonlantirish;  
E) kontrast.

8. Yozuvchi tomonidan kuzatilgan, idrok etilgan ibratli voqea va hodisalarni ixcham shaklda badiiy ifoda etuvchi nasriy asar nima deyiladi?

- A) roman;  
B) qissa;  
D) hikoya;  
E) ertak.

9. O'zbek adabiyotida hikoya ustalari kimlar?

- A) A.Qahhor, S.Ahmad, O.Yoqubov;  
B) A.Suyun, T.To'la, T.Adashboyev;  
D) O.Genri, L.Fayziyev, T.Sulaymon;  
E) Shukrullo, Oybek, R.Parfi.

10. 1905-yil 10-yanvar kuni Toshkentda tug'ilgan adib kim?

- A) S.Ahmad;  
B) Oybek;  
D) Shukrullo;  
E) A.Qodiriy.

# YANGI AVLODNING

## MAHALLA «SHIFOKORI»

*Bu mahallada turli millat vakillari yashasada, bir-birlari bilan «Assalomu alaykum» deya salomlashishadi. Xalqimizga xos bunday urfodat, an'analar poytaxtimizning Sergeli tumanidagi «Bobur» mahallasida yanada yaqqolroq ifodasini topgan. Chindan-da mahalla ham ota, ham ona, ham do'st, ham ustoz deya bejiz aytilmagan. Bir so'z bilan aytganda, mahalla ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar maskaniga aylangan.*

*«Bobur» bolalari u yerda qilinayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida mahalla tomon yo'l oldik.*



Xursanoy opa RO'ZINAZAROVA «Bobur» mahallasiga rais etib saylanganiga endigina bir yarim yil bo'ldi. Asli kasbi shifokor bo'lgan opa mahallaning haqiqiy «shifokori»ga aylandi. Bir kuni uning qabuliga haykaltarosh yigit kirib keldi-yu, hammasi shundan boshlandi. Haykaltarosh Bahromjon Mamadaliyevning tashabbusini opa qo'llab-quvvatladi. U yigitning bir-ikki ishini ko'rgach, mahalla bolalari uchun to'garak tashkil qilishga ahd qildi. Hunar o'rganishga ishtiyoqi baland bolalar haykaltarosh akalaridan saboq ola boshlashdi. Ularning ishini kuzatib borayotgan shirkat raislari o'z uylari atrofida bolalar maydonchalariga haykalchalar yasatishga buyurtma bera boshladilar. Oradan ko'p o'tmay, ertak qahramonlarining haykalchalari ko'p qavatli uylar maydonchalarini bezay boshladi. Ayrim sho'xroq, qiziquvchan bolakaylar haykalni yaxshilab «o'rganishdi». Ammo sidqidildan mehnat qilayotgan haykaltarosh ularni qayta-qayta butlashdan erinmadi. Hunarmandning mashaqqatli mehnatini kuzatayotgan bolajonlar nihoyat uning ishini qadrlashni o'rganishdi. Bora-bora o'zlari ham maydonchalar atrofida gullar, mevali va manzarali daraxtlar ekib, bu joylarning haqiqiy egalari aylanishdi.

**«Bobur» mahallasi 1995-yilda tashkil topgan. Ko'chalar soni 3 ta, ko'p qavatli uylar 55 ta. Aholi soni 9850 nafar, xonadonlar 2004 ta. Maktab yoshidagilar 3090 nafar. Ular 317-, 300-, 284- maktablarda ta'lim-tarbiya olishadi.**

## FAXRIY YORLIQ'IMIZ BOR

Mahallamiz Toshkentning 2200 yilligi hamda Mustaqilligimizning 18 yilligi munosabati bilan «Faxriy yorliq» bilan mukofotlandi. Bu bizga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Hamisha kattalarga ko'makchi bo'lib, yurtimizni yanada obod qilishga oshiqamiz.

Oydin XIDIROVA,  
o'quvchi



*Bu gullarga siz ham havas qildingizmi yoki uyingiz atrofi gullarga konmi?*

## QADRIYATLAR TANTANASI

Oyzoda opa MAMBETOVA «Shuhrat» medali sohibasi. U «Jahonargulda» shirkat xo'jaligi raisasi. Yaqinda Oyzoda opa Amerikaning Okloxoma shtatidagi «Tulsa» universitetida bo'lib, tajriba almashib qaytdi.

– Men 17 kun davomida xorijda bo'lganimda, aholining, ayniqsa, mahallada yashovchilarning hayot tarzini o'rgandim. Ularning havas qilari jihatlarini o'rganish bilan birga, o'zimizning azaliy qadriyatlarimiz, milliy ma'naviyatimizni namoyish etdik, – deydi opa. – Amerikadagi ko'p qavatli uylar oldidagi bolalar maydonchalari e'tiborimni tortdi. Chim yotqizilgan ozoda maydonda bolalar uchun ertak qahramonlari haykalchalari, o'yingohlar doimo bolajonlar bilan gavjum. Bugungi kunda mahallamizdagi bolalar maydonchalari ularnikidan aslo kam emas.


Ayni kunda yettita ko'p qavatli uylar atrofida 200 tupdan ortiq archa, terak, dilni ravshan qiladigan bir-biridan chiroyli gullar mahalla bolalari tomonidan parvarish qilinadi.

Zero, Vatanga muhabbat tuyg'usi, avvalo ostonadan boshlanadi.

## ENG YAQIN DO'STLARIM

– Maktab o'quvchilaridan iborat bo'lgan «Yashil patrul» guruhi a'zolari ham asosan bizning mahallamiz bolalaridir. Ayni kunlarda ular xazonlarni yig'ishtirib, qurigan shox-shabbalarni butash bilan band, – suhatimizga qo'shildi «Naju» shirkat xo'jaligining eng yosh raisi Aliya HOJIYEVA. – 275 ta xonadonda asosan yosh oilalar istiqomat qilishadi. Ular bilan birgalikda ish olib borishda, eng avvalo, Xursanoy opa, Oyzoda va Maryam opalarimning ish tajribalarini o'rganyapman.


Bolalarimiz faol. Ular mening eng yaqin do'stlarim. Shu sababdan bayram tadbirlari-yu hasharlar doimo hamjihatlikda o'tadi.



## «SHOKIRARIQ»NING ONAXONI

Maryam opa MASHARIPOVAni mahalla ahli hoji ona deya e'zozlashadi. Bolalarga mehribon, kattalarga maslahatgo'y bu onaxon chindan ham Shokirariqning onaxoni. Shu sababdan ham ularni shirkat xo'jaligi raisi etib saylab adashmadilar.

– Mahallamizda 17 ta ko'p qavatli uy bo'lib, ularda 540 ta xonadon, 10 ta bolalar maydonchasi mavjud, – deydi tabassum bilan onaxon. – Bugungi kunda mahallamizga tashrif buyurgan har bir mehmonning ko'zi, eng avvalo, uylarimiz atrofining tozaligiga, maydonchalarimizdagi toshdan bejirim qilib ishlangan laylak, kiyik, echki, yo'lbars, sher haykalchalarga tushadi. Bizning ishlarimiz respublikada ommalashayotganidan xursandmiz.



## CHAQMA-CHAQAR BOLAKAY

Agar siz ham mahallangizning go'zal maskan ekanligidan faxrlansangiz, uni qadrlashni o'rgansangiz, ijobiy ma'noda besh yoshli Ulug'bekka o'xshab chaqma-chaqarga aylanasiz. Chunki u qaysi bola yerga muzqaymoq qog'ozini tashlasa, pista po'chog'ini ulotirsiz, darrov Oyzoda opaga yetkazadi. Ana, ko'rdingizmi, hatto besh yoshli Ulug'bek ham o'z uyini o'zi asrashni, avaylashni bugundan o'rganyapti.

## BURGUT MO'JIZASI

Hunarliga dunyo keng, deyishadi. Men haykaltarosh Bahromjon akaning mashaqqatli va qiziqarli ishlarini ko'rib, hunar o'rganishga qiziqib qoldim.


Qarang, mana shu burgut haykalchasi toshlar orasidan go'yo simirib suv ichib, atrofida gullarga hayot bag'ishlaydi. Mo'jiza yaratayotgan burgut bizning qadrdon do'stimizga aylangan. Do'stni xafa qilish mumkinmi?

Sherzod ABDUMANNOPOV,  
317-maktab o'quvchisi




*Ikki oqqush ham mahallaga tinchlik, totuvlik ramzi bo'lib ko'rk berib turibdi.*

*Ona-bola kiyik bolakaylarni birga o'ynashga chorlayapti, go'yo.*



# DADIL ODIMLARI

*Darhaqiqat, yoshlik – go‘zal, yoshlik – baxt, chunki uning kelajagi bor. Yoshlarimiz o‘z kelajaklarini ham go‘zal, nurli, porloq bo‘lishiga intilishlari lozim. Zero, ularning ertasi – yurtning ertasi demak. Buni teran anglagan intiluvchan, izlanuvchan yoshlarimiz bilim va salohiyatlarini oshira borib, yurt sha‘nini yanada yuksaltirishga chog‘lanishgan. O‘qing, ibrat oling, Siz ham intiling!*



*Biri shoir, biri musavvir, Texnikaga ixlosmand ular. Zamonamiz zukko yoshlari, Kelajakka poydevor qurar.*



## ISTIQBOLDAN ILHOMLANIB

O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi S.N.Sirojiddinov nomli akademik litsey o‘quvchisi Bobur Ubaydullayev ham ana shunday izlanuvchan yoshlarimizdan biri.

Boburjonning maktab davri Qo‘shra-botning so‘lim Istiqbol qishlog‘ida o‘tdi. Bu go‘shaning betakror tabiati, zilol suvlari, yam-yashil qir-u adirlari, go‘zal manzaralaridan zavqlanib, ilk bor qo‘liga qalam olgan bo‘lsa, ne ajab?! Mehridaryo ustozlarining saboqlari esa murg‘ak qalbidagi adabiyotga, she‘riyatga bo‘lgan havasni maqsadga aylantirdi.

Ana shu ishtiyoq uni ko‘plab ko‘rik-tanlovlarda ishtirok etishga undadi.

2007-yil uning hayotida omadli yil bo‘ldi. «Nafosat» yosh qalamkashlar tanlovining Respublika bosqichi g‘olibi bo‘ldi. Shu yili «Mitti yulduz» nomli ilk she‘riy to‘plami chop etildi. Unda beg‘ubor bolalik xotiralari jamlangan bo‘lsa, «Yoshlik bayozi» nomli ikkinchi kitobida betakror yoshlikning o‘tkamligi-yu shijoati tarannum etiladi.

O‘tgan yili fan olimpiadasining «Til va adabiyot» fani bo‘yicha tuman bosqichida 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, qalami charxlangan Boburjon bu yil undan-da

keng qamrovli tanlovlarda iqtidorini sinab ko‘rishga jazm etdi. «Kelajak ovozi – 2009» tanlovining Toshkent shahar bosqichida «Adabiyot va publitsistika» nominatsiyasi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

U mazkur tanlovda inson o‘z ustida tinmay ishlasa, izlansa, yana, o‘z bilimi, qobiliyatiga ishonsa, unga albatta tole kulib boqishiga yana bir bor amin bo‘ldi. Quloq tuting-a, tengdoshingiz o‘z quvonchini sizlar bilan baham ko‘rmoqchi:

– «Kelajak ovozi»! Bugun bu nomni eshitmagan, bilmagan biror

o‘g‘il-qiz topilmasa kerak. Men ham ko‘plab tengdoshlarim kabi ushbu tanlovda ishtirok etishni niyat qilib yurardim. Bu yil orzumga yetdim va g‘oliblar qatoridan o‘rin oldim. Bunda albatta benazir ustozlarimdan hamda «Tong yulduzi» tahririyatidagi jurnalist aka va opalarimdan olgan bilimlarim asqotdi.

Men bir narsaga aminman: oramizda iqtidorli o‘quvchilar juda ko‘p. Lekin hammalari ham ko‘rik va tanlovlarda ishtirok etmaydilar. Ular o‘z bilim va salohiyatlarini sinovdan o‘tkazishga yoqunt qilmaydilar yoki o‘zlarida jur‘at topa olmaydilar. Barcha iqtidorli tengdoshlarimga ushbu tanlovda qatnashishni maslahat berardim. Zero, «Kelajak ovozi» orzular ro‘yobidir.



Erta tongda Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 328-maktabga yo‘ldik. Qadrdon maktabi sari oshiqib, borayotgan baxtiyor o‘g‘il-qizlarining qadamlari sadolari zavqimizga zavq qo‘shdi.

Ushbu maskanda o‘tkazilgan «O‘zbek tili oyligi» anjumanida o‘quvchilar dono va zukkoliklarini yana bir bor namoyon etdilar. Davlat madhiyasini tinglar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda Ona Vatanimizning bepoyon dasht-u dalalari, orzulari osmon farzandlarimizning quvonchli chehralari namoyon bo‘ldi.

«Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlarini

behisob savollari bilan shoshirib qo‘ygan o‘quvchilarning qiziquvchanligini ko‘rib, yurtboshimizning farzandlarimiz bizdan-da zukko va dono bo‘lishlari kerak, degan iboralarini esladik.

Bu tadbirga maktab o‘quvchilari juda



puxta tayyorlanishibdi. Bunda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Dilorom opaning hissalarini katta, albatta. Shu kuni maktab sahnasida suxandonlar, yosh qalamkashlar, g‘azalxonlar bellashdilar, «Ma‘naviyatimiz sarkorlari» – «Bolalar soati» kabi bir-biridan qiziq tanlovlarda ishtirok etgan iste‘dod sohiblarini barcha birdek olqishladi.

**Malika MUNAVVAROVA,** maktabning 7-«B» sinf o‘quvchisi:

– Ustozlarimiz bilan faxrlanamiz. Ular bizning ikkinchi onamiz desak, ishonavering:

**Mirafzal SHOFAYZIYEV,** 7-«B» sinf o‘quvchisi:

– E‘tibor bergan bo‘lsangiz, til bayramimizda «Susanbil» ertagi qahramonlari bilan yaqindan tanishdingiz. O‘sha sahnamizda «Suvning tinig‘i, o‘tning bo‘lig‘i,



yo‘lning yorug‘i» degan gaplar bor. O‘quvchilarning ham xuddi ertak qahramonlari kabi ana shunday maskanda tahsil oladilar. Ustozlarimiz bag‘ri kengligidan, biz bilan do‘stona munosabatda bo‘lishlaridan g‘ururlanamiz. A‘lo o‘qib, yurt tayanchi, ota-onamiz suyanchi bo‘lishga va‘da beramiz.

Til dilning kaliti. Qalblarga til orqali yo‘l topib boriladi. Shunday ekan, biz o‘z ona tilimizni qadrlab, uni sevib e‘zozlashimiz lozim.

## DO‘STGA OCHIQUCHOG‘ING

*Do‘stga ochiq quchog‘ing,  
Biz uchun keng hur bog‘ing.  
Gullayversin chamanim,  
Aziz ona Vatanim.*

*Qadimdan ko‘rkamdirsan,  
Ajdodiy o‘lkamdirsan.  
Qutlug‘ muborak yoshing,  
Toshlardan bo‘lsin boshing!*  
**Behzod MAVLONOV,**  
7-«V» sinf o‘quvchisi

## TABIATNI ASRANGI

Ariqlarda suv oqadi zilol-zilol,  
Yangi chiqqan oyni derlar, ana –hilol,  
Tabiatga zulm qilmang, kelar malol,  
Tabiatning ne‘matlarin asrang, do‘stlar.

Yerga eksang bitta urug‘ gul bo‘ladi,  
Kuzga borib hosili ham mo‘l bo‘ladi.  
E‘tiborsiz bo‘lsak bog‘ ham cho‘l bo‘ladi,  
Tabiatning ne‘matlarin asrang, do‘stlar.  
**Gulchehra XOLIQULOVA,**  
8-«V» sinf o‘quvchisi



## «O'QITUVCHI»GA BAXSHIDA UMR

Keksa avlod vakillari, ota bobolaringiz yaxshi biladigan bir yozuvchi bor. U o'tgan asrda yashab ijod qilgan, ilk o'zbek ziyolisi obrazini zamonaviy adabiyotda aks ettirgan adib Parda Tursun bo'ladi. Bu taniqli yozuvchi mening bobom bo'lib, u kishi Namangan viloyatining Pop tumanidagi Chorkesar qishlog'ida 1909-yil 7-noyabrda tavallud topgan.



To'qqiz yoshida, ya'ni 1918-yilda Chorkesar qishlog'idan Toshkentga kelgan. Bir necha yil xizmatkor bo'lib, odamlar eshigida kun kechiradi. Lekin hayotdagi qiyinchiliklar uning qalbida tug'yon urib, yagona maqsad – ilm olishga qat'iy bel bog'laydi. 1923-1927-yillarda tajriba-ko'rsatkich maktabida tahsil oldi. 1927-1928-yillarda esa pedagogika bilim yurtida o'qib, o'z bilimini oshirdi. So'ngra, 30 yillar boshiga qadar Toshkent viloyatining Pskent tumanidagi maktablarda o'qituvchilik qildi.

Uning «Ostonada», «Bir xotinning tarixi» kabi hikoyalari, «Majlisda», «Yangi raislar», «Yaylovda», «Traktorchi» kabi ocherklari kema-ket bosilib chiqdi.

Ayniqsa, Parda Tursunning «Domla» (1937-yil) hikoyasi ijodida muhim o'rin tutadi. Bu hikoya asosida 1947-yilda «Haq yo'l» qissasi yaratildi. So'ngra, o'zining ilk «O'qituvchi» romanini yaratdi.

Bu kitob yozuvchini dunyoga tanitdi. Rus, ukrain, latish, eston, tojik, qirg'iz, uyg'ur va boshqa xalqlar tillariga ham

tarjima qilinib, shuhrat qozondi.

Bundan bir necha yil muqaddam, ya'ni 2004-yil 28-oktabrda qizim – mamlakatimizning birinchi raqamli tennischisi Oqgul Amanmuradova Hindistonning Puna shahrida bo'lgan musobaqadan juda ta'sirlanib qaytdi. U yerda bir hind tennishi qizning onasi Invira Jayraman yoshligida, Moskvada ta'lim olgan paytida o'zbek yozuvchisi Parda Tursunning «O'qituvchi» romanini rus tilida o'qigani va undan benihoya ta'sirlanganini hikoya qilib beribdi.

Bobomiz Parda Tursun hayot bo'lganda, shu kunlarda 100 yoshga to'lgan bo'lardilar. Ular urushda qatnashib, yoshligida juda azob-uqubatlarni boshdan kechirganliklari uchun endi ijodi gullagan bir paytda 48 yoshda, 1957-yilda vafot etganlar. Biz bobomizning ustoz-muallimlarga bag'ishlangan «O'qituvchi» romani, «Haq yo'l» qissasi bilan faxrlanib yuramiz.

Saodat AMANMURADOVA,  
san'atshunoslik fanlari nomzodi

Xotira aziz

SAVOL:

Hurmatli tahririyat! Plutarx nomini ko'p eshitaman. U haqda ma'lumot bersang!

PLUTARX qadimgi yunon yozuvchisi. U eramizdan avvalgi milodiy 46-120-yillarda yashagan. 250 ga yaqin asar yozgani haqida ma'lumot bor, ammo ulardan bir qismigina yetib kelgan. «Etika» – uning eng mashhur asarlaridan biri sanaladi.

Tahririyatdan:

Aziz bolalar! Shu sondan boshlab, jahon adabiyotining yirik namoyandalari haqida qisqacha ma'lumot berib boramiz. Ularni yig'ib boring, kerakli va muhim qo'llanmaga ega bo'lasiz.



Maftuna Xolmatova  
Qashqadaryo viloyati,  
Dehqonobod  
tumanidagi 77-  
maktabning 8-«D»  
sinfida o'qiydi.

## SAJDAGOHIMSAN, VATAN!

Vatan, ko'zim qarog'idasan,  
So'zlarimning ardog'idasan,  
Yuragimning qirg'og'idasan,  
O'zing mening sajdagohimsan!

Mag'rib-Mashriq ichra durdona,  
Dilim ichra bo'lding yagona.  
Tillardagi yorqin afsona,  
Ona yurtim qiblagohimsan!

Ulg'aytirding, beshigim bo'lding,  
Ozod yurt-u eshigim bo'lding.  
Aytolmagan qo'shig'im bo'lding,  
Ming asrlik qarorgohimsan!  
Qiblagohim, sajdagohimsan!



## OLTIN KUZ

Yetib keldi kuz fasli,  
Daraxt bargi sarg'aydi.  
Bobo kabi bir yoshga,  
Jilolanib ulg'aydi.

Go'yo turar uyalib,  
Jilolanib, tebranib,  
Barglari uzilgandan,  
Qolgan kabi achinib.

Dillar to'lib quvonchga  
Yana bahor keladi.

Daraxtlar ham barg yozib,  
Yashil libos kiyadi.

Risolat IBROHIMOVA

## YOZUVCHI BILAN VCHRASHUV

Kollejimizda taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimov bilan bo'lib o'tgan uchrashuv bebaho boyligimiz – o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kunga bag'ishlandi. «Til – ma'naviyat ko'zgusi» deb nomlangan ushbu tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rgan edik. Sahnada ijro etgan musiqiy



dasturlarimiz kecha ishtirokchilari va mehmonlarning olqishlariga sazovor bo'ldi. So'z mas'uliyati, til boyligi borasidagi bahs-munozaralar, sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning savollarimizga bergan javoblari barchamizda

katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, yozuvchi o'z asarlari haqida gapirib, ularning yaratilishi borasida to'xtalib o'tdi.

Osiyo JAYLOBOVA,  
1-Toshkent pedagogika kolleji  
talabasi

Qambar ota hammamizning sevimli shoirimiz. Otaxon ijodkorning she'rlari allaqachon o'z muxlislarini topgan. Yaqinda shoir bobomiz yam-yashil maydonda sport bilan shug'ullanayotgan bolalarni ko'rib, behad quvonibdilar. Ilhomlanib ushbu she'rlarni yozibdilar:


## POLVONMAN

Polvonman, o, polvonman,  
Kuchli deb nom olganman.  
Bilaklaringa qarang,  
Mushaklarim tap-tarang.

Sportning qadrin bilib,  
Chiniqaman mashq qilib.  
Ko'kragi naq qalqonman,  
Pahlavonman, o, polvonman.

Ishlatmayman hech firib,  
Raqibimga chil berib.  
Yelkandan tez oshirib,  
Qo'yaman ko'p shoshirib.

Mardlar halol kurashar,  
Kurash menga yarashar.  
Jasur, botir yuragim,  
Yerga tegmas kuragim.



## KOSMONAVTLAR KO'RGAN EMISH


(Hazil)

Chapdast, mohir futbolchiman,  
Ishqibozlar qoyil qolar.  
To'p tomonga yelar bo'lsam,  
Hamma menga chapak chalar.

O'tgan futbol o'yinida  
Tepgan to'pim uchib ketdi.  
Darvozaning to'sini-chi,  
To'ri bilan ko'chib ketdi.

O'ng oyoqni ishga solsam,  
Himoyada hech kim qolmas.  
Manman degan o'yinchi ham  
Aslo menga teng kelolmas.

Chap oyoqda tepgan to'pim  
Ko'kada kezib yurgan emish.  
O'sha to'pni oyga uchgan  
Kosmonavtlar ko'rgan emish.



## KO'TARAMAN TOG'NI HAM!

Nomdor Toshpolvonman,  
Og'ir, bardosh polvonman.  
Mashg'ulotdan tiniqib,  
Toblanganman chiniqib.

Baland tutib boshimni,  
Hayotning zil toshini.  
Yetish uchun tilakka,  
Yuklaganman bilakka.

Keng tutaman bag'irni,  
Har qandayin og'irni.  
Nafim tegsin o'lkamga,  
Deb olaman yelkamga.


Og'ir yukli polvonman,  
Sharafli nom olganman.  
Xalqim talab qilgan dam,  
Ko'taraman tog'ni ham!



## FUTBOL QO'SHIG'I

Futbol...  
Futbol...

Ko'ngil ocharsan futbol,  
Xohi yigit, xohi chol.  
O'spirin yoki bola,  
Misli mavjli shalola.




Kuzdami, bahormi, yoz,  
Hamma birday ishqiboz.  
Shodlik to'la mavoda,  
Koptok uchar havoda.

O'rtada zo'r bellashuv,  
Sinashib, do'st-ellashuv.  
Shersifat chapdast o'g'lon,  
Ishonchli darvozabon.

Yurak futbol to'piday,  
Gurs-gurs urar paydar-pay.  
Hayajonsiz hayron, lol,  
Turib bo'lmas bemalol.

Kelganida qulay gal,  
Dillar istar: «Gol! Gol!»  
Yutqizgan ham, yutgan ham,  
Shodlikni ko'rar baham.



Orom-osoyish dilda,  
Yutuq tomoshabinda.  
O'zingsan faxr-u iqbol,  
Buncha go'zalsan, futbol!


## SHOH MOT BOLAR

Zelnim qo'yib shohmotga,  
Mahliyoman men Otga.  
Erk beraman Filimga,  
Tushunar u dilimga.

Zumda Zobit – qo'mondon,  
Urar maydonda javlon.  
Yurganimda Farzinni,  
Ko'ring o'yin tarzini.

Olg'a sursam, Piyoda  
Baxti doim ziyoda.  
Suvoriy yo Fil bo'lar,  
Imkonlari mo'l bo'lar.

Shohni tez kisht-kishtlayman,  
G'alabani peshlayman.  
Dillarga g'ayrat to'lar,  
Noiloj Shoh mot bo'lar.



# YAXSHI

## «GO'YOKI OSMON GULZOR...»

Zuhra Solihovaning «Orzularim qanot qoqmoqda» ilk she'riy to'plami nashr etildi. Albatta, bugun sakkiz, o'n olti yashar o'smirlarning kitob chiqarishlari odatiy holga aylandi. Bu yaxshi. Ozod yurt bergan imkoniyat. Ilgari zamonda o'ttizga kirgan shoir ham ilk kitobini chiqarolmay ovorai sarson bo'lardi. Bugun ana shu opalar o'smir yoshlarga chinakamiga havas bilan qaraydilar. Darvoqe, Zuhra Solihova ham quvonsa, yayrasa arziydi. Birinchi kitob – birinchi sinov. «Berilmoqda imkoniyatlar, foydalansak soz bo'lar», deb yozadi u. Yosh qalamkashning ijodida istiqloq nafasi, yurtga shaydolik, ustozlarga bo'lgan izzat-hurmat yaqqol aks etadi. Eng muhimi, unda intilish, harakat, o'qish-o'rganishga bo'lgan ishtiyoq bor. Asosiysi ham shu. «Sinfdosh» she'rida o'qiymiz:

# KITOBBLAR

## SINFDOSH

Birga o'sdik yoshlikdan,  
Bo'ldik endi sinfdosh.  
Ayrilmas dugonalar,  
Hamda eng yaqin sirdosh.

Birga dars tayyorladik,  
Fikrlashib hamisha.  
Qo'lladik bir-birimiz,  
Bajargan har bir ishda.

Esdan chiqmas bu onlar,  
Uzib bo'lmas rishtalar.  
Unutmagin sinfdosh,  
Biz go'yo farishtalar.  
Esda qoladigan satrlar.



Bo'sh kelma, Zuhra! O'zingdagi kamchiliklarni bartaraf etib, intilib yashasang, maqsadga erishasan. Oldinda seni ulkan zafarlar kutmoqda.


**SHAHNOZA** tayyorladi

«Yurist-media markazi» nashriyotida «Bolalar uchun ibratli hikoyatlar» to'plamining 1- va 2-kitoblari 1000 nusxada chop etildi. «Bolalar uchun ibratli hikoyatlar» to'plamining 1-kitobini nashrga Ibrohim Jo'ra, 2-kitobni esa Sanobar Nuriddinova tayyorlashdi. Ularda jahon adabiyotidan bolalarga mo'ljallangan qissa va hikoyatlarining eng sara namunalari jamlangan.

# BOR

Bu durdona asarlarni o'qib, yaxshi va yomon, o'g'ri va to'g'ri, soxtakorlik va haqiqat, sodiqlik va riyokorlik, aql va kuch-qudrat, hayotda duch kelishingiz mumkin bo'lgan turli odamlar va holatlar haqida teranroq fikr yuritasiz, degan umiddamiz.

**DILOROM**



Aziz bolalar, har tong nonushtaga onalaringiz bir piyola sut tayyorlab qo'yishadi, a? Ba'zilaringiz yuzingizni burishtirib, ichmayman, deya injiqlik

# BOLAJONLAR, SUT ICHING!

qilasiz. Balki sut inson organizmi uchun juda zarur ozuqaligidan bexabardirsiz. Bilasizmi, bir litr sutdagi oqsil moddasi sakkizta tuxumdagi oqsil moddasi barobardir. Sut, qatiqda go'sht va baliqdan ko'ra ko'proq oqsil bor. Olimlar tomonidan biyokimyoviy tahlil qilinganda, sut tarkibi A, V, S, D darmondorilariga boy ekanligi aniqlangan. Abu Ali ibn

Sino sutning mohiyati, tabiati, xossalari to'g'risida gapirib, uning inson oziqlanish a'zolari, shish va toshmalar, jarohat va yaralar, bo'g'inlar, bosh, ko'z, nafas a'zolariga shifo hamda isitma va zaharlarga qarshi davoligi haqida ko'p yozgan. U bilan og'iz chayqash, g'arg'ara qilish, tomoq og'riq, tomoq shishi, tilchening va bodomsimon bezlarning

shishlariga foyda qiladi.

Ko'p xalqlarda yangi sog'ilgan echki va qo'y suti, sigir sutidan qatiq ivitib, tuya sutidan qimron va biya sutidan qimiz tayyorlab, xilma-xil kasalliklar davolab kelinadi.

**Yulduz USMON** qizi




# S U D O K U

Bo'yi va eni bo'ylab 1 dan 9 gacha sonlar, shuningdek, 9 ta 9 xonali ajratilgan bloklardan ham 1 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar takrorlanmasligi shart.

			3	4	9	5	8	1
3	9	8	5	6	1			
4	5	1				9	3	6
			9	8	7	6	5	2
5	6	7	4	1	2			
2	8	9				7	1	4
9	7	2	8	3	6			
			2	9	5	3	7	8
8	3	5				2	6	9

1	6		3		5		9
8	3		9		4		6
5	9		8		1		2
	1		7	3			5
	6		8	5			9
	5		9	6			2
6	1		7		2		5
2	5		6		7		3
7	4		5		9		8

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV



Bundan 60-70 yillar avval yo'lbarslar uchrab turardi. O'zbekistonning Sirdaryo va Amudaryo qamishzorlarida ko'p kamayishi bilan ular ham bu

hududlarni tark etishdi. Endi bu bahaybat yirtqichlarni faqat hayvonot bog'ida ko'rishimiz mumkin. Toshkent hayvonot bog'ida hozirgi kunda amur yo'lbarslari mavjud. Yaqinda 2 ta mitti yo'lbars dunyoga keldi. Bir yil atrofida ular ona suti bilan, so'ng go'sht mahsulotlari bilan boqildi. Keyinchalik ular boshqa mamlakatlarga jo'natilib, noyob, ekzotik hayvonlarga almashtiriladi.

Hozirgi kunda yo'lbarslar Hindiston hududida ko'p uchraydi. U yerda bu yirtqichlar davlat nazoratiga olingan.

**Tohir IBRAGIMOV,** tabiatshunos



**Muassislar:**  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

**BOSH MUHARRIR:**  
**To'liqin HAYITOV**

Dizaynerlar:  
**Fazliddin SHOYODGOROV,**  
**Olovuddin ORIPOV**  
Navbatchilar:  
**Axtamqul KARIM,**  
**Yusuf ABDULLAYEV**

Gazeta  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(Mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

**Manzilimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeksi: 700129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
**Tel: 244-27-25, 244-63-08**  
**Tel./faks:**  
**(99871) 244-38-10**

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
**ISSN 2010-6092**  
**Adadi - 26991**  
**Buyurtma N: J 8379**